

**ONA TILI DARSLARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA TAVSIYALAR**

Umarov Doston Samandar o'g'li

ToshDO'TAUning 3-kurs talabasi

dostonumarov223@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishning samarali usullari va didaktik yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, yozma nutq malakasini shakllantirishda o'qituvchining roli, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari tahlil qilinadi.

Abstract: This article discusses effective methods and didactic approaches to developing students' written speech in native language classes. It also analyzes the role of the teacher, the system of tasks and assessment criteria in the formation of written speech skills.

Kalit so'zlar: yozma nutq, ona tili, metodika, topshiriq, ijodiylik, tafakkur, dars jarayoni.

Keywords: written speech, native language, methodology, task, creativity, thinking, lesson process.

Kirish

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrashi, o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta olish qobiliyati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ona tili darslarida bu maqsadga erishishning asosiy yo'llaridan biri — yozma nutqni shakllantirish va rivojlantirishdir. Yozma nutq nafaqat o'quvchining til boyligini oshiradi, balki u orqali mantiqiy tafakkur, izchillik, matn tuzish, tahlil qilish kabi zaruriy ko'nikmalar ham shakllanadi. Shu bois, ona tili o'qituvchisi dars jarayonida o'quvchilarning yozma faoliyatiga doimiy ravishda e'tibor qaratishi, ularni yozishga o'rgatishi, jarayonni tizimli tashkil etishi zarur.

Bugungi kunda yozma nutqni rivojlantirishda faqat an'anaviy insho yozish

yoki matn tuzish bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy didaktik yondashuvlar, innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va differensial yondashuvlar asosida samarali faoliyatni tashkil qilish talab etiladi. O'quvchida yozishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otish, uni motivatsiya qilish, faol fikrlashga undovchi vazifalarni qo'llash bu boradagi asosiy mezonlardandir.

Asosiy qism

1. Bosqichli mashqlar tizimi

Yozma nutqni o'rgatishda avvalo osondan murakkabga qarab harakat qilinishi kerak. Masalan, 5-sinf o'quvchilari uchun dastlab quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

So'z birikmalaridan gap tuzish:

So'zlar: ko'k osmon, shirin meva, tez yugurmoq.

Topshiriq: Har bir so'z birikmasidan kamida bir gap tuzing.

Gaplar zanjiri tuzish:

O'qituvchi birlinchi gapni beradi: "Bog'da gullar ochildi."

O'quvchilar ushbu gapga mantiqan bog'liq 4-5 gapdan iborat matn tuzadilar.

Bu bosqichli mashqlar yozma matn tuzish ko'nikmasining negizini shakllantiradi.

2. Model matnlar ustida ishlash

Model matnlardan foydalanish o'quvchilarni matnning tuzilishi, uslubi, til vositalarini to'g'ri tanlashga o'rgatadi.

"Bahor keldi. Tabiyat uyg'ondi. Daraxtlar g'unchaladi. Qushlar sayray boshladи. Odamlar yuzida quvonch balq uradi."

Topshiriqlar:

Matnga sarlavha qo'ying.

Har bir gapning rolini izohlang.

Ushbu matn asosida 6-7 gapdan iborat shaxsiy kuzatuvlariningizga asoslangan matn yozing.

3. Ijodiy topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish

Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tasavvurni boyitishga

xizmat qiladi. Masalan: "Tasviriy matn yozing" topshirig'i:

Rasm beriladi: tog‘ manzarasi, yomg‘irli kun, yozgi dala.

Topshiriq: "Rasm asosida tasviriy matn yozing. Kamida 8 gap bo‘lsin."

Erkin mavzuda insho:

Mavzu: "Kitob mening do‘stim"

Yo‘riqnomalar: Kirish, asosiy va xulosa qismlarini alohida ajratish. O‘z fikringizni misollar bilan boyiting.

Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga, his-tuyg‘ulariga asoslangan yozuv faoliyatini kuchaytiradi.

4. Nutqiy vaziyat asosida yozish

Yozma nutqni real hayotiy vaziyatlarga bog‘lash orqali o‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash mumkin. Masalan: Siz maktab direktoriga yangi kitoblar olib kelish bo‘yicha murojaat xatini yozishingiz kerak. Xat shaklini, muomala uslubini va rasmiy ifodalarni to‘g‘ri qo‘llang. Yoki: Do‘stingizga maktub yozing: unda siz oxirgi o‘qigan kitobingiz haqida qisqacha ma’lumot bering va unga ushbu kitobni o‘qishni tavsiya qiling. Bu kabi topshiriqlar orqali yozma nutqda uslubiy tanlov, kontekstga mos ifoda va mantiqiy tuzilish ustida ishslash mumkin.

5. O‘qituvchining roli va motivatsiya

O‘qituvchi o‘quvchini yozishga undaydigan muhit yaratishi, topshiriqlarni qiziqarli shaklda berishi, har bir o‘quvchining yondashuviga individual tarzda e’tibor qaratishi muhim. Rag‘batlantiruvchi so‘zlar, yozgan ishlarini darsda o‘qish, devoriy gazetaga joylashtirish, kichik adabiy ko‘rik-tanlovlardan tashkil etish orqali o‘quvchining motivatsiyasi ortadi.

6. Kichik guruhlarda matn yozish metodi

Yozma nutqni rivojlantirishda kichik guruhlar bilan ishslash o‘quvchilarning faoliyatini faollashtiradi, fikr almashish, muhokama qilish va jamoaviy ijod qilish malakalarini rivojlantiradi. Ushbu metod orqali har bir o‘quvchi matn yaratish jarayonida faol ishtiroy etadi va yozishdan zavq oladi. Darsda qo‘llash:

1. Sinf 4–5 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadi.

2. Har bir guruhga bir xil yoki turli mavzularda yozma topshiriq beriladi.

Masalan:

“Qishda tabiat”

“Men orzu qilgan kasb”

“Kitobning foydasi”

3. Guruh a'zolari matnni birgalikda rejallashtiradi, muhokama qiladi va har bir bo'limini navbatma-navbat yozadi (masalan, biri kirishni, boshqasi asosiy qismni va h.k.).

4. Tayyor bo'lgan matn sinfda o'qiladi va boshqa guruhlar tomonidan baholanadi.

Metodning afzalliklari:

O'quvchilar bir-birini to'ldirib, o'zaro fikr almashadilar.

Nutq birliklari va uslubiy jihatlarga ongli yondashadilar.

Matn ustida ishlash jarayoni ijodiy muhitda kechadi.

Baholash taklifi: Har bir guruh ishi quyidagi mezonlar asosida baholanishi mumkin:

Matnning mantiqiy tuzilishi;

Guruhda ishlash madaniyati;

Yozuvning grammatik va uslubiy aniqligi;

Fikrning izchilligi va dolzarbligi.

Xulosa

Yozma nutq — bu o'quvchining tafakkurini, til boyligini, mantiqiy izchilligini va ijodiy salohiyatini ifoda etuvchi asosiy vositadir. Aynan shu sababli, ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda samarali natijaga erishish uchun o'quvchilarda yozishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ular uchun qiziqarli va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqlarni taklif qilish, yozilgan matnlar ustida muntazam va tizimli tahlil olib borish zarur.

Shuningdek, yozma nutqni o'rgatishda bosqichma-bosqich yondashuv, model matnlar asosida ishslash, ijodiy topshiriqlardan foydalanish, hayotiy vaziyatlarga mos yozish faoliyatini yo'lga qo'yish kabi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashuvi, rag'batlantiruvchi muhit yaratishi va baholash mezonlarining adolatli qo'llanishi yozma nutq ko'nikmalarining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutqni shakllantirish faqat grammatik me'yorlarga rioya qilish emas, balki fikrlashni, o'zini erkin ifoda eta olishni va o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etish madaniyatini rivojlantirishdir. Ona tili darslarida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish orqali biz kelajakda bilimli, muloqotga layoqatli va ijodkor avlodni voyaga yetkazishga zamin yaratamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev, A. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Usmonov, N. Nutq madaniyati va yozma nutqni o'stirish yo'llari. – Samarqand: "Ilm ziyo", 2021.
3. G'anieva, D. Boshlang'ich sinflarda yozma nutqni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Karimova, Z. Til o'rganish va tafakkurni rivojlantirish metodlari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2018.
5. Qurbanov, B. Yozma nutqni rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarning o'rni. – "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2022, №1.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fanidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun namunaviy o'quv dasturi (5–9-sinflar). – Toshkent, 2021.
7. Mavlonova, R. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
8. Hasanova, M. Yozma nutqni baholash mezonlari va ularni amaliy qo'llash usullari. – "Metodik izlanishlar" jurnali, 2023, №2.